

Berdiyeva Gulobod Shonazarovna,
Qarshi Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti "Pedagogika" kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI IJTIMOY-MADANIY FAOLIYATDA IJODIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

UO'K: 37.013.42:37.015.31:004

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_3_2](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_3_2)

BERDIYEVA G.SH. RAQAMLI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA IJODIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy madaniy faoliyatda raqamli aksiologik yondashuv asosida ijodiy salohiyatini rivojlantirishga oid xalqaro tajribalar to'g'risida bo'lib, Xalqaro tashkilotlar konseptual hujjatlaridagi raqamli ta'limning aksiologik jihatlari va raqamli aksiologik yondashuvning nazariy asoslariga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqolada raqamli aksiologik yondashuv asosida ijodiy salohiyatini rivojlantirishga oid xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishning talabalar ijodkorligi va madaniy faolligini oshirishdagi muhim ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, hamda Yevropa itfoqidagi konsepsiyalarning ijodiy salohiyatga ta'siri qiyosiy tahlil qilingan

Tayanch so'z va tushunchalar: raqamli aksiologik yondashuv, UNESCO, ESD, GCED, MIL konsepsiyalari, OECD, kompetensiya, qadriyat.

БЕРДИЕВА Г.Ш. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ В СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОГО АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА.

Данная статья посвящена изучению международного опыта развития творческого потенциала студентов высших учебных заведений на основе цифрового аксиологического подхода в социально-культурной деятельности. Особое внимание уделяется аксиологическим аспектам цифрового образования в концептуальных документах международных организаций и теоретическим основам цифрового аксиологического подхода.

В работе обоснована важная научно-практическая значимость адаптации международного опыта к национальной системе образования для повышения творческой и культурной активности студентов, а также проведен сравнительный анализ влияния концепций Европейского Союза на развитие творческого потенциала.

Ключевые слова и понятия: цифровой аксиологический подход, ЮНЕСКО, ОУР, ГКГ, Концепции МИГ, ОЭСР (OECD), компетенция, ценность.

BERDIYEVA G.SH. INTERNATIONAL EXPERIENCES IN DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE POTENTIAL IN SOCIO-CULTURAL ACTIVITIES BASED ON A DIGITAL AXIOLOGICAL APPROACH.

This article explores international experiences in developing the creative potential of higher education students through a digital axiological approach within socio-cultural activities. Particular attention is paid to the axiological aspects of digital education as outlined in the conceptual documents of international organizations, as well as the theoretical foundations of the digital axiological approach.

The article substantiates the significant scientific and practical importance of adapting international practices to the national education system to enhance student creativity and cultural engagement. Furthermore, a comparative analysis is conducted on the impact of European Union educational concepts on the development of creative potential.

Keywords and concepts: Digital axiological approach, UNESCO, ESD, GCED (Global Citizenship Education), MIL concepts (Media and Information Literacy), OECD, competence, value

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarorida quyidagilar pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

- tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash;

- pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish;

- oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

Shuningdek, qarorda yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan [2].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonunining beshinchi moddasi ta'lim olish huquqi deb nomlanib, unda ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-

quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish vazifasi belgilab qo'yilgan [1]

Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri bu talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini qadriyatlarga asoslangan holda rivojlantirishdan iboratdir. Raqamli texnologiyalarning ta'lim va madaniy muhitga chuqur integratsiyalashuvi shaxsning ijodiy o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirib, mazkur jarayonni aksiologik yondashuv asosida ilmiy-metodik jihatdan asoslash zaruratini kuchaytirmoqda.

Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarning qisqacha tahlili.

Ilmiy adabiyotlarda aksiologik yondashuv ta'lim jarayonini insoniy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar tizimi asosida tashkil etishga qaratilgan konsepsiya sifatida talqin etiladi. Raqamli muhitda esa ushbu yondashuv "texnologiya"+"qadriyat"+"ijod" integratsiyasini ta'minlab, talabalarda ijtimoiy faollik, madaniyatlararo muloqot va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, Angliyaning Oxford universitetidan Luciano Floridi raqamli muhitda texnologiyalar axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim omil ekanligini ta'kidlab, ta'limni inson markazli yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni taklif etadi [3].

Xalqaro tashkilotlar konseptual hujjatlarida ham raqamli ta'limning aksiologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, UNESCO

tomonidan ilgari surilgan "Global Citizenship Education va Media and Information Literacy - Global fuqarolik ta'limi va ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi" konsepsiyalarida talabalarining ijtimoiy-madaniy faolligi, ijodiy fikrlashi va madaniy qadriyatlarga sodiqligini raqamli muhitda rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [4].

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development-Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bo'lib, 1961-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkilotdir. Bosh qarorgohi Fransiyaning Parij shahrida joylashgan) tashkilotida ta'lim natijalarini baholashda ijodkorlik, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy ongning muhim kompetensiyalar qatoriga kiritiladi [5].

Shu bois, raqamli aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish zamonaviy pedagogika uchun nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, bu yo'nalish ta'lim jarayonida qadriyatga yo'naltirilgan, ijodiy va ijtimoiy mas'ul shaxsni shakllantirishning samarali ilmiy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi:

Jahondagi oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga doir xorijiy tajribalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotning usuli va obyekti:

Jahondagi oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy salohiyatining mavjud holatini o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash va ilmiy qarashlar va konsepsiyalarning qiyosiy tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot obyekti: raqamli aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga doir xorijiy tajribalarni o'rganish va tahlil etish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Raqamli aksiologik yondashuvning nazariy asoslari Luciano Floridining axborot etikasi va digital humanism konsepsiyasida keng yoritilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalar inson va jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanishi lozimligi asoslab beriladi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida talabaning nafaqat bilim oluvchi, balki ijtimoiy-madaniy va ijodiy

subyekt sifatida shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyalik Neil Selwyn, hozirda Avstraliyadagi universitetida faoliyat olib borib, xalqaro ilmiy tadqiqotlarida raqamli aksiologik yondashuv talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy ishtirokini rivojlantirishning samarali omili sifatida e'tirof etiladi. Xususan, raqamli san'at, media ijodkorlik, ijtimoiy loyihalar va madaniy tashabbuslar orqali talabalar o'z ijodiy salohiyatini namoyon etishi, madaniyatlararo muloqotga kirishishi va ijtimoiy mas'uliyatli pozitsiyani shakllantirishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan [6].

Bu jarayonda raqamli platformalar va vositalar ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi resurs bo'lib, talabalarining qadriyatlarga asoslangan ijodiy tajribasini kengaytiradi.

Doug Belshaw "The essential elements of digital literacies- Raqamli savodxonlikning asosiy elementlari" asarida raqamli savodxonlikni faqat texnik ko'nikmalar majmui emas, balki, qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va madaniy kontekst bilan bog'liq kompleks tushuncha sifatida talqin qiladi. U raqamli muhitda madaniyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy kontekstni tushuntirib, raqamli savodxonlikni texnik ko'nikmalar majmui sifatida emas, balki madaniy, ijtimoiy va aksiologik komponentlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali kompetensiya sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning qadriyatlarga asoslangan qo'llanilishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [7].

Yevropa Ittifoqi ta'lim makonida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga faol jalb etish, hamda ularning ijodiy salohiyatini qadriyatlarga asoslangan holda rivojlantirish vazifasi Digital Citizenship Education (DCE) va Media and Information Literacy (MIL) konsepsiyalari orqali tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan Digital Citizenship Education konsepsiyasi raqamli muhitda fuqarolik faolligi, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va madaniy xilmaxillikni asosiy aksiologik mezonlar sifatida belgilaydi. DCE modeli talabaning raqamli jamiyatda nafaqat texnologiyadan foydalanuvchi, balki ijtimoiy-madaniy tashabbuslarni ilgari suruvchi

1-jadval. Yevropa Ittifoqidagi konsepsiyalarni taqqoslash

T/r	Taqqoslash mezonlari	Digital Citizenship Education (DCE)	Media and Information Literacy (MIL)	Ijodiy salohiyatga ta'siri
1	Konsepsiya manbai	Council of Europe	UNESCO	Xalqaro qadriyatlar asosida ijodiy rivojlanish
2	Asosiy maqsad	Raqamli jamiyatda faol, mas'ul va demokratik fuqaroni shakllantirish	Media va axborot bilan ongli, tanqidiy va ijodiy ishlay oladigan shaxsni tarbiyalash	Ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni rivojlantirish
3	Aksiologik asos	Inson huquqlari, demokratiya, madaniy xilma-xillik, mas'uliyat	Axloqiylik, madaniy hurmat, axborot mas'uliyati	Ijod qadriyatlarga tayangan holda rivojlanadi
4	Ijod bilan bog'liq domenlar	Learning and Creativity, Active Participation, Media and Information Literacy	Digital creativity, Cultural participation, Critical thinking	Ijodiy faoliyat ijtimoiy mazmun kasb etadi
5	Talabaniy roli	Faol raqamli fuqaro, ijtimoiy tashabbuskor	Tanqidiy va ijodiy media ishtirokchisi	Ijodiy subyekt sifatida shakllanadi
6	Ijodiy faoliyat shakllari	Ijtimoiy loyiha, raqamli kampaniya, madaniy aksiyalar	Video, blog, podkast, media loyiha	Ijodiy ifoda va o'zini namoyon etish
7	Kutilayotgan natija	Ijtimoiy mas'ul, madaniyatli va ijodiy fuqaro	Tanqidiy, axloqiy va ijodkor media foydalanuvchi	Ijtimoiy-madaniy faol ijodkor shaxs

ijodiy subyekt sifatida shakllanishini ko'zda tutadi. Mazkur konsepsiyada "Learning and Creativity- O'rganish va ijodkorlik" domeni alohida o'rin tutib, talabalarni raqamli muhitda ijodiy fikrlash, madaniy kontent yaratish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga undaydi. Bu jarayon qadriyatlarga asoslangan mas'uliyat, empatiya va madaniy tushunish bilan uyg'unlashtiriladi.

UNESCO tomonidan ilgari surilgan Media and Information Literacy (MIL) konsepsiyasi Yevropa ta'lim amaliyotida madaniy savodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. MIL doirasida talabalar axborotni tahlil qilish, media kontent yaratish va uni ijtimoiy-madaniy qadriyatlar asosida baholash ko'nikmalarini egallaydi [8].

MIL yondashuvi talabalarning madaniy merosga hurmat, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda raqamli ijodkorlikni muhim vosita sifatida talqin etadi. Raqamli hikoyalar, media loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar talabaniy ijodiy salohiyatini namoyon etishga imkon yaratadi.

Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, DCE va MIL konsepsiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv texnologiya, qadriyat va ijod integratsiyasini ta'minlab, raqamli muhitda ijtimoiy mas'ul shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Yevropada Digital Citizenship Education va Media and Information Literacy kon-

sepsiyalari aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning samarali modeli sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish talabalar ijodkorligi va madaniy faolligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi (1-jadval).

Shunday qilib Yevropa ta'lim amaliyotida Digital Citizenship Education va Media and Information Literacy konsepsiyalari aksiologik yondashuv asosida talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'zaro uyg'un tizim sifatida namoyon bo'ladi. DCE ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyatini, MIL esa media va madaniy ijodkorlikni ta'minlab, texnologiya-qadriyat-ijod integratsiyasini yuzaga keltiradi.

Yevropa ta'lim tizimida Digital Citizenship Education va Media and Information Literacy konsepsiyalari asosida raqamli aksiologik yondashuv tizimli, kompetensiyaga yo'naltirilgan va baholanadigan model sifatida joriy etilgan. Ushbu yondashuv talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini raqamli muhitda rivojlantirish, ularni faol, mas'ul va madaniyatli raqamli fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida esa, ma'naviy-axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlar yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa-da, ularni raqamli muhit va ijodiy faoliyat bilan uzviy integratsiyalash hali to'liq tizimlashtirilmagan. Shu sababli, Yev-

2-jadval. O'zbekiston ta'lim tizimini va Yevropa (DCE & MIL) Ittifoqi bilan taqqoslash

Taqqoslash mezonlari	Yevropa (DCE & MIL)	O'zbekiston ta'lim tizimi
Normativ-konseptual asos	Digital Citizenship Education, Media and Information Literacy konsepsiyalari (Council of Europe, UNESCO)	"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, oliy ta'limni raqamlashtirish strategiyalari, ma'naviy-ma'rifiy konsepsiyalar
Aksiologik tamoyillar	Inson huquqlari, demokratiya, madaniy xilma-xillik, empatiya, ijtimoiy mas'uliyat	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya
Raqamli muhitga yondashuv	Raqamli muhiti ijtimoiy-madaniy va ijodiy faoliyatning asosiy maydoni	Raqamli muhit asosan o'quv va axborot uzatish vositasi
Ijodiy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlari	Raqamli san'at, media ijodkorlik, ijtimoiy loyihalar, raqamli hikoya (digital storytelling)	To'garaklar, tanlovlar, an'anaviy madaniy tadbirlar; raqamli ijod tizimli emas
Talabaniy roli	Faol raqamli fuqaro, ijtimoiy-madaniy tashabbuskor, ijodiy subyekt	Tadbir ishtirokchisi, ijodiy faollik ko'pincha tashkiliy doirada
Ijtimoiy-madaniy faoliyat shakllari	Onlayn jamoalar, volontyorlik platformalari, madaniy media loyihalar	OTM doirasidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar, festivallar
Baholash tizimi	Ijodkorlik, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy ong kompetensiya sifatida baholanadi (OECD yondashuvi)	Asosan bilim va ko'nikmalar baholanadi, ijodiy-aksiologik indikatorlar cheklangan
Natijaviylik	Ijtimoiy mas'ul, madaniyatli va ijodkor raqamli shaxs	Ma'naviy jihatdan tarbiyalangan, ammo raqamli ijodkorlik salohiyati to'liq ochildirgan talaba

ropa tajribasidagi DCE va MIL konsepsiyalarining aksiologik, ijodiy va baholashga yo'naltirilgan elementlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish O'zbekiston oliy ta'limida talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi ijodiy salohiyatini barqaror rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

Amerika Qo'shma Shtatlari oliy ta'limda "Digital ethics, AI Ethics, Values-based education – Raqamli etika, AI(sun'iy intellekt) etikasi, qadriyatlarga asoslangan ta'lim" kurslari keng joriy etilgan. Bu modelda talabalar raqamli platformalar orqali ijtimoiy-madaniy muammolarga ijodiy yechimlar ishlab chiqadi; tanqidiy va refleksiv fikrlash ustuvor hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar bilan bog'liq ta'lim faqat texnik kompetensiyalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki ularning ijtimoiy, axloqiy va madaniy oqibatlarini anglashga yo'naltirilgan. Shu asosda Digital Ethics, AI Ethics va Values-Based Education kurslari shakllanib, raqamli aksiologik yondashuvning amaliy ifodasiga aylanmoqda. Ushbu kurslar talabalarda inson qadri, ijtimoiy mas'uliyat, adolat va ijodiy erkinlikni raqamli muhitda uyg'un rivojlantirishni maqsad qiladi [6].

Bu kurslar doirasida talabalar ijtimoiy-madaniy muammolarni raqamli ijodiy loyihalar sifatida ijtimoiy kompaniyalar, raqamli hikoyalar, media tashabbuslar orqali hal etishga yo'naltiriladi. Natijada, ijodiy faoliyat axloqiy va

qadriyatlarga tayangan holda rivojlanib, ijod – shaxsiy manfaat emas, balki, ijtimoiy foyda va madaniy mas'uliyat bilan bog'lanadi [3].

AQShning Values-Based Education kurslarida oliy ta'limida talabaniy fuqarolik pozitsiyasi, madaniy xilma-xillikka hurmat, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Bu kurslar talabalarni ijtimoiy xizmat (service learning), madaniy loyiha, volontyorlik va kreativ tashabbuslar orqali faol ishtirok etishga undaydi. Natijada, ijodiy salohiyat ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan uzviy bog'lib ijod shaxsiy o'zini namoyon etishdan ijtimoiy transformatsiya vositasiga aylanmoqda [9].

Yaponiyada ta'lim va texnologik rivojlanish tajribasida raqamli texnologiyalarni milliy-madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish alohida o'rin tutadi. Mamlakatda raqamlashtirish jarayoni faqat texnik innovatsiyalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki jamiyatning tarixiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan [10].

Yapon jamiyatida intizom, jamoaviylik, kat-talarga hurmat, mas'uliyat va ijtimoiy uyg'unlik (wa) asosiy qadriyatlar hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar ta'lim tizimida, xususan, raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayonida ham yetakchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar axloqiy tarbiya vositasi sifatida qaraladi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonida talabalarda mas'uliyatli

3-жадвал. Qadriyatlar va kompetensiyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik

T/r	Qadriyatlar	Mos kompetensiyalar
1	Halollik	Mas'uliyatli qaror qabul qilish
2	Mas'uliyat	Refleksiya va o'zini baholash
3	Hurmat	Empatiyaga asoslangan muloqot
4	E'tibor (Care)	Ijtimoiy munosabatlarni boshqarish
5	Hamkorlik	Jamoaviy faoliyat kompetensiyasi
6	Fuqarolik ongi	Faol ishtirok va fuqarolik kompetensiyasi

raqamli xulq-atvor, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va jamiyat manfaatlarini hisobga olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Yaponiya robototexnika va sun'iy intellekt sohasida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, ushbu texnologiyalarni ishlab chiqishda insonparvarlik va madaniy qadriyatlar ustuvor hisoblanadi. Tadqiqotlarda robotlar va AI tizimlari insonlarga xizmat qiluvchi, ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlovchi vosita sifatida talqin etiladi. Ta'lim tizimida raqamli platformalar, elektron resurslar va interaktiv vositalar milliy madaniyat, tarix va an'analarni o'rganish bilan integratsiyalashgan holda qo'llaniladi. Bu talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan birga, ularning milliy identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni milliy-madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish texnologik taraqqiyot va ma'naviy rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali model bo'lib xizmat qiladi [11].

Janubiy Koreyada "Digital character education - Raqamli personajlar ta'limi" modeli orqali media savodxonlik, ijtimoiy mas'uliyat va ijodkorlik integratsiyasi ta'minlanadi. Talabalar raqamli madaniyat doirasida ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshiriladi [12].

Janubiy Koreyada 2015 yilda "Character Education Promotion Act" – "Xarakterni tarbiyalash ta'limini targ'ib qilish to'g'risidagi qonu qabul qilinib, bu raqamli muhitda axloqiy inqirozlar, onlayn zo'ravonlik, ijtimoiy begonalashuv, dez-informatsiya xavflari mavjudligi sababi texnologik rivojlanish bilan birga qadriyatlarga tayan-gan holda shaxsni axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik qadriyatlari asosida tarbiyalashni davlat siyosati darajasida yo'lga qo'ygan asosiy qonundir. Qonunda halollik, mas'uliyat, hurmat, e'tibor,

mehr, muloqot, hamkorlik kabi qadriyatlar o'z ifodasini topgan bo'lsa, empatiyaga asoslangan kommunikativlik va nizolarni hal qilish kabi kompetensiyalar keltiriladi. Bu esa raqamli muhitda "to'g'ri xulq"ni shakllantirish bilan birga, talabalarining ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreyada qabul qilingan qonunda qadriyatlar va kompetensiyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni quyidagicha ifodalashimiz mumkin (3-жадвал).

Global fuqoro bo'lish UNESCO, GCED, MIL, ESD. Barchamizga ma'linki, UNESCO – Birlashgan millatlar tashkilotining ixtisoslashgan agentligi bo'lib, ta'lim, fan va madaniyat soha-larida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan shug'ullanadi. U ta'lim, fan va madaniyat soha-larida xalqaro siyosat va standartlarni ishlab chiquvchi, global miqyosda tavsiyalar beruvchi yetakchi tashkilotdir. 1945 yilda tashkil topib, 190 dan ortiq mamlakatlar a'zo bo'lib, bosh qarorgohi Fransiyaning Parij shhrida.

UNESCOning to'liq nomi United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization - Birlashgan millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi tinchlik va barqaror taraqqiyotga ta'lim, fan va madaniyat orqali erishish hamda inson huquqlari, madaniy xilma-xillik, adolatni qo'llab-quvvatlashdan iborat [13].

MIL ning raqamli aksiologik yondashuvi shundaki, u texnologiyani qadriyatlarga xizmat qildiradi, ijodkorlikni ijtimoiy foyda bilan bog'laydi, "bilim + axloq + ijod" integratsiyasini ta'minlaydi.

Shunday qilib Media and Information Literacy (MIL) – bu shaxsning axborot va media muhitida tanqidiy fikrlashi, axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya qilishi hamda ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy ishtirokini ta'minlashga qaratilgan xalqaro ta'lim konsepsiyasidir.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, UNESKOning ESD, GCED va MIL konsepsiyalari raqamli aksiologik yondashuv asosida ijodkorlikni ijtimoiy foyda va qadriyatlar bilan integratsiyalab, talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyatini barqaror, mas'ul va tanqidiy asosda rivojlantirishni ta'minlaydi.

Talabalarni raqamli texnologiyalar vositasida ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra innovatsion metodik tavsiyalar taklif etildi, unga ko'ra quyidagi jihatlarni aniqlandi:

- raqamli aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish bu talabanning adolat, tenglik, inklyuziya, jamiyat va tabiat oldidagi javobgarlikni his etishini ta'minlaydi;
- talabalarni ijodiy va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish bu ularni turli vaziyatlarga barqaror yechimlar ishlab chiqish, ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqib, amalga oshirishiga turtki bo'ladi;
- raqamli aksiologik yondashuv asosida talabanning barqaror fikrlashini rivojlantirish talabning tizimli va uzoq muddatli tafakkur, sabab-oqibat bog'liqliklarini anglashiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi URQ-637-son Qonuni. - <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori. - <https://lex.uz/docs/-4749364>
3. Xalikov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish. Diss. ... ped. fan. dok-ri. – T., 2018. – 285 b.
4. Umarova Ra'noxon Ubaydullayevna. INTELLEKTUAL SALOHİYAT: MOHIYATI, TASNIFI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 06, June (2024)
5. Belsha D. (2018). Preparing our youth for an inclusive and sustainable world: The OECD global competence framework. Paris: OECD Publishing.
6. Selwyn N. (2020). Should robots replace teachers? AI and the future of education. Cambridge: Polity Press.
7. Belshaw D. (2014). The essential elements of digital literacies. London: Self-published.
8. Council of Europe. (2019). Digital citizenship education handbook
9. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO.
10. Lovat T., Toomey R., Dally K., & Clement N. (2010). Values education and quality teaching. Springer.
11. Takahashi T. (2018). Moral education and technology in Japan. Asian Education Review, 12(2), 77–89.
12. Ito M., et al. (2019). AI and ethics in Japanese society. Journal of Asian Technology Studies, 5(1), 33–48
13. OECD. (2020). Education policy outlook: Japan.
14. UNESCO. (2015). Global Citizenship Education: Topics and learning objectives. Paris: UNESCO